



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEK TILIDAGI ZAMONAVIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING IJTIMOIIY LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Soatova Zilola

TerDPI 1-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy lingvistik tushunchalar, lingvistik me'yor, ijtimoiy qatlamning boyishi, siyosiy tizimdagi neologizmlarning kirib kelishi, lingvistik jihatdan yangi so'zlarning jamiyatdagi tutgan o'rni, iqtisodiy hayotdagi yangi so'zlarning leksik-semantik uslubi keng yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Neologizmlar, leksik ma'no, grammatik moslashuv, iqtisodiy leksikonlar, lingvistik paradigmalar, lingvistika, til me'yori, yangi so'zlarning leksik xususiyatlari, yangi ma'no, ijtimoiylashuv, lug'at qatlamidagi yangi so'zlar boyish manbalari.

Аннотация: В статье дается комплексный обзор современных языковых концепций, языковых норм, обогащения социальных слоев, внедрения неологизмов в политическую систему, роли лингвистически новых слов в обществе и лексико-семантического стиля новых слов в экономической жизни.

Ключевые слова: Неологизмы, лексическое значение, грамматическая адаптация, экономические лексиконы, языковые парадигмы, лингвистика, языковая норма, лексические характеристики новых слов, новое значение, социализация, источники обогащения новых слов в словарном пласте.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of modern linguistic concepts, linguistic norms, the enrichment of social strata, the introduction of neologisms into the political system, the role of linguistically new words in society, and the lexical-semantic style of new words in economic life.

Keywords: Neologisms, lexical meaning, grammatical adaptation, economic lexicons, linguistic paradigms, linguistics, language norm, lexical characteristics of new words, new meaning, socialization, sources of enrichment of new words in the vocabulary layer.

KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari asrida har jabhada yangiliklar yaratilmoqda. Xususan, o'zbek tilining rivojlanish sur'ati yuqorilab bormoqda. Yaqin kunlar mobaynida ijtimoiy jarayonda yangicha termin va atamalar paydo bo'lishi iqtisodiy evolyutsiyadan darak. Neologizmlar o'zbek tili rivoji uchun juda muhimdir. Neologizm (yunoncha neo — "yangi", logos — "so'z") — tilga yangidan kirgan, ilgari mavjud bo'lmagan yoki mavjud bo'lsa-da, yangi ma'no kasb etgan





birliklardir. O'zbek tilida yangi so'zlar tashqi aloqalar va iqtisodiy jarayonlar natijasida yuzaga kelmoqda. So'nggi yillarda dunyodagi tezkor raqamlashtirish jarayonlari, global kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi yangilanishlar o'zbek tilining lug'at tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tilning asosiy vazifalaridan biri kommunikativ ehtiyojni qondirish bo'lgani sababli, yangi tushunchalar, texnik vositalar va jamiyatdagi yangicha munosabatlarni ifodalash uchun yangi so'zlar — neologizmlar paydo bo'ladi. Neologizmlar tilning doimiy rivojlanish jarayonida muhim ko'rsatkich bo'lib, o'zbek tilining hozirgi taraqqiyot bosqichida ayniqsa faollashgan

ASOSIY QISM

Yoshlar, jamiyat, fan texnika birgalikda harakati o'zbek tilining lug'at tarkibi boyishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda „avtobus“, „trolleybus“, „like“, „internet“ „kompyuter“, „samolyot“ kabi yerminlar faol qo'llanmoqda. Yangi paydo bo'lgan so'zlarni turli jihatlariga ko'ra tasniflash mumkin. Avvalo, ularni ijtimoiysiyosiy atamalar: vazir, vazirlik, devonxona, hokim, tuman, agrofirma, fermer kabi; iqtisodiy atamalar: diler, lizing, injenering, bozor infrastrukturasi; ilm-fan, texnikaga oid atamalar: internet, kompyuter, diskovod, skaner; maktab-maorifga tegishli bo'lgan leksik birliklar: akademik litsey, kollej, dastur singari o'nlab yo'nalishlarga bo'lib yuborish mumkin. O'zlashma neologizmlar ichida o'tkinchi, shoshma shosharlik bilan, sun'iy ravishda hosil qilingan leksemalar ham uchraydi. Masalan: majalla, jarida, oynoma, ochqich, yozg'ich, barnoma, oliy bilimgo'h kabi. (Y. Shaymanova, Z. Qarshiboyeva). Haqiqatdan ham yangi lingvistik so'zlar til qatlami boyishiga xizmat qiladi. Misol uchun „internet“ so'zi o'zbek tilida muqobili yo'q edi, bu yangi atama esa lingvistikamizga yangi so'z sifatida o'rin oldi va xalqimiz bu so'zni nutqida faol qo'llanoqda. Trolleybus so'zi bugun omma orasida keng qo'llanadi. Lingvistlar esa bu yerinni mexanikaga doir, leksik jihatdan ot so'z turkumi deb talqin qilishadi. Bundan tashqari, brand, kontent, web log(kundalig) kabi yangi so'zlar leksikamizga qo'shilib, o'zbek tili boyishiga xizmat qilmoqda. Bu so'zlar yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar va iqtisodiy loyihalar ishlash jarayonida, faol nutqiy birikmalar sifatida qo'llanadi. So'z yasali sh yo'li bilan hosil qilingan neologizmlar ham uchraydi, Misol o'rnida „Kiberxavfsizlik“ inglizcha cyber + o'zbekcha xavfsizlik. Yoshlar neologizmlarni tezroq qabul qiladi va tarqatadi. Maktab va oliy ta'limda neologizmlarni o'qitish — hozirgi zamon fanlari va texnologiyalarini tushuntirish uchun muhim. Lug'at darslarida yangi atamalar, ularning tarixi va to'g'ri yozilishi ko'proq o'rganilishi zarur. Ba'zi neologizmlar jinsiy stereotiplarga ta'sir etuvchi yoki kasbiy guruhlar tomonidan keng ishlatiladi (masalan, IT sohasidagi terminologiya texnik mutaxassislar orasida keng tarqaladi). Davlat tilini muhofaza qilish va rivojlantirish dasturlari mavjud bo'lib, neologizmlarni milliy talaffuz va yozish qoidalariga moslashtirish





bo'yicha ishlar olib boriladi. Tilshunoslar yangi so'zlarni adaptatsiya qilish, o'zbekcha ekvivalentlar yaratish va standartlashtirish yo'llarini taklif qiladilar. (O'zbekiston til institutlari va ilmiy markazlar bu borada faoliyat yuritadi.) Ijtimoiy lingvistika tilning jamiyat bilan bog'liqligini o'rganadi: kim qaysi so'zlarni qayerda, qachon va nima maqsadda ishlatadi. Neologizmlar aynan shu o'zgarishlarning eng ko'zga ko'ringan jihatlaridan biridir — ular yosh, jins, hudud, kasb va ijtimoiy mavqe bilan bevosita bog'liq. Shu o'rinda neologizmlarni dialektologiyadan farqlash lozim. O'zbek tilida muqobili yo'q termin, albatta, boshqa so'zga ehtiyoj sezadi bu o'rinda tashqi omillar sabab neologizmlar vujudga keladi. Dialektologiya-nutqning norasmiy ko'rinishidir. Ko'pchilik kishilar hech qanday o'zgarishsiz, qo'shimchalarsiz o'zlashma so'zlarni yaxshi tanishadi: bar, film, lider, chunki bunday so'zlar o'zbek tilidagi so'zlarning funksiyasini bajaradi, ba'zi bir insonlar esa aksincha qo'shimcha olgan, o'zgarishlarga uchragan o'zlashma so'zlarni bilishmaydi. Masalan ayrim sozlarning ingliz yoki fransuz tilidan kirib kelganini qancha so'zlashuvchi biladi? Ba'zi bir o'zlashma so'zlar o'zlarining asl shaklida yoki ularga to'g'ri keladigan shaklda ifodalanadi: misol qilib fransuz tilidagi bojole, jilet, palto, ingliz tilidagi punch va ponce, roastbeef va rosbif (yoki rosbiffe) larni aytib o'tishimiz mumkin. Boduen de Kurtene mashhur til sotsiolingvisti tilning ruhiy tomoni bilan bir qatorda, ijtimoiy tomoniga ham urg'u berish kerakligini ta'kidlaydi. Buyuk tilshunos va tarjimon L.S. Barxudarovning "tarjima"ga taklif qilgan ta'rifidan boshlasak: "Tarjima – bir tildagi nutqiy asarning mazmun rejasini, ya'ni ma'nosini o'zgarmagan holda boshqa tildagi nutqiy asarga aylantirish jarayoni hisoblanadi"[2,6]. L.S. Barxudarov tarjima jarayoni haqida gapirar ekan, "jarayon" atamasi sof lingvistik ma'noda, tarjima bilan bog'liq holda o'rganish nazariyasini ishlab chiqdi ya'ni matnning bir tildan ikkinchi tilga o'zgarishi yoki tillararo o'zgarishi sifatida talqin qilinishini tushuntiradi. Tarjima, ayniqsa, madaniy masalalarni hal qilishda tarjima nazariyasini qo'llashni tavsiflash uchun turli xil tadqiqot sohalari bilan bog'liq. Asl matnlarning madaniy jihatlarini tushunish, matnning asosiy xabarini tushunish va bunday xabarni samarali yetkazish turli madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish uchun zarur hisoblanadi. Shu ma'noda tarjima sintaktik, semantik strategiyalar hamda ijtimoiy yondashuvlarni qo'llashda turli madaniyatlarni yetkazishni talab qiluvchi real hayot amaliyotiga asoslanadi. Tilning ijtimoiylashuvi odatda sosializasiya sifatida tushuniladi, bu orqali til ijtimoiy jihatdan tegishli usullarda qo'llaniladi. Shu sababli, ijtimoiy ko'nikmalarga e'tibor qaratilib, tarjimonlar turli xil matnlardagi turli madaniyatlarni tushunish uchun o'zlarining ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishlari kerak. Tarjima birligi matnning so'z va jumlar bo'yicha tili bo'libgina qolmay, balki shu matnning rivojlangan madaniyati ham hisoblanadi. Matn madaniyatini tushunish tarjima vazifasini o'z ichiga olgan xabarni kodlashtirish jarayonlarini o'rganishni talab qiladi. Zamonaviy axborot





texnologiyalari va texnikaning jadal, uzluksiz rivojlanishi tufayli ingliz tilida yangi soʻzlar va yangi obyektlar, atamalar, hodisalar va tushunchalarni bildiruvchi soʻz birikmalarining paydo boʻlishida ifodalangan oʻzgarishlar roʻy berdi. Internet diskursi alohida eʼtiborga loyiq boʻlgan neologizmlarning boy manbasiga aylandi, chunki ularni talqin qilish koʻpincha katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va kengroq oʻrganishni talab qiladi. Sotsial jamiyatda har bir soha bugungi islohot natijasida rivojlanib bormoqda. Tilning jamiyatda toʻrt asosiy vazifasi bor ekan birinchi oʻrinda kommunikatsion vaziyatda muqobil soʻzlarni qoʻllash uchun ham neologizmlarni bilish ahamiyatga ega. Yaqin yillarda nafaqat yangi soʻzlar, balki kasbda ham neologizmlar oʻrni beqiyos. Misol uchun Blogger-blog yaratuvchi degan maʼnoni bildirib rivojlanish natijasida jamiyat ushbu soʻzni Qabul qildi va yoshlar bugungi kunda faol fuqaro sifatida kasbiy yerinni qoʻllamoqda. Bundan tashqari „vizual“, „virtual“ kabi tushunchalar axborot texnologiyalari sohasida lingvistik til meʼyoriga amal qilgan holda qoʻllanmoqda. Har qanday soʻz ham neologizm boʻla olmaydi. Misol uchun „Plumyot“ soʻzi yangi termin, Biroq xalq uni qabul qilmadi. Demak yangi soʻz sifatida qayd etilishi uchun xalq uni qabul qilishi va muqobiliga ega boʻlmasligi lozim. Jahonda, Shimoliy Koreada, bu kabi islohotlar 1964-yilda amalga oshirildi. Fransiyada esa 1989-yilda Fransiya Davlat tili departamenti tashkil etildi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda neologizmlar, ularning kelib chiqishi va moslashuvi haqidagi tadqiqotlar koʻpaydi: texnologik leksika, inglizcha kirib kelgan atamalar, hamda internet/jargon tili tahlillari paydo boʻldi. Milliy til institutlari va universitetlarda neologizmlarning tasnifi va til siyosatiga taʼsiri muhokama qilinadi.

BAHS VA MUNOZARA:

Baʼzi mutaxassislar chet tillaridan koʻp kirib kelgan soʻzlarni til ifloslanishi deb baholashadi; boshqalar esa bu jarayon tilning tabiiy rivojlanishi deb koʻradilar. Muvozanatni topish (oʻzbekcha ekvivalentlar yaratish va kerakli hollarda qabul qilish) — muhim masala. Chetcha leksika koʻpayishi milliy madaniyatga taʼsir qilishi mumkin; shu bilan birga, til global kommunikatsiyada ishtirok etish imkonini ham beradi. Shu nuqtai nazardan til siyosati strategiyasi — qaysi soʻzlarni oʻzlashtirish va qaysilariga oʻzbekcha atama yaratish kerakligini belgilaydi. Terminologik lugʻatlar yaratish — yangi atamalar uchun rasmiy ekvivalentlarni ishlab chiqish va ularni keng ommaga yetkazish. Taʼlimda integratsiya — oʻquv dasturlariga zamonaviy leksikani kiritish; soʻz maʼnolari va yozuvi boʻyicha tavsiyalar berish. Hududiy tadqiqotlar — shahar va qishloqdagi leksik tafovutlarni oʻrganish va hududiy siyosat ishlab chiqish. OAV va jamoatchilik hamkorligi — jurnalistlar, bloggerlar va rasmiy institutlar oʻrtasida soʻzlarni standartlashtirish boʻyicha kelishuvlar Lugʻat korpuslari yaratish — yangi soʻzlar va ularning ishlatilish kontekstlarini yigʻuvchi elektron korpus yaratish B.Mengliyev Neologizmlar





tilning innovatsion qatlamini tashkil etadi va ular ko'pincha terminologiya tizimida paydo bo'ladi. U termin-neologizmlarni quyidagicha tasniflaydi: texnik neologizmlar, iqtisodiy neologizmlar, sotsiokulturologik neologizmlar. 1. A.Madvaliyev (akademik) Neologizmlarni tilning doimiy yangilanish jarayonining tabiiy natijasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, jamiyatda yangi texnika, yangi fanlar, yangi kasblar paydo bo'lishining barchasi tilning leksik tizimida yangi birliklar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. U neologizmlarni ikki turga ajratadi: 1) ichki imkoniyatlar asosida yaralgan so'zlar, 2) tashqi (o'zlashma) manbalardan kirgan yangi birliklar. 2. N.Mahmudov (professor) Neologizmlar tilning faollashgan qatlamini tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning ta'rificha, neologizmlar nafaqat "yangi so'z", balki tilning dunyoqarashi, madaniyati va tafakkuridagi yangilanishni aks ettiradi. U zamonaviy o'zbek tilida paydo bo'layotgan internet, texnika, ijtimoiy hayotga oid yangi terminlar milliy tilning ochiq sistema ekanidan dalolat beradi, deb hisoblaydi. 3. Sh.Rahmatullayevning fikriga ko'ra, neologizmlar tilning leksik-semantik rivojlanishida eng harakatchan qatlam hisoblanadi. U neologizmlarni uch guruhga bo'ladi: 1. Butunlay yangi tushunchani nomlovchi so'zlar 2. Eski so'zning yangi ma'nosi (semantik neologizm) 3. Yangi shakldagi qo'shma so'zlar va iboralar. Neologizm turli yo'sinda jamiyat leksikasini boyituvchi asosdir. Har qanday etnik guruh uchun yangi atama va zamonaviy terminlar uzluksiz rivojlanishdan darak.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Til rivoji jamiyat evolyutsiyasidan darak beradi. Zamonaviy global jarayonda tilning leksik, morfologik boyishi bilan bir qatord neologizmlar ham til qatlami boyishiga xizmat qiladi. Neologizmlar tilni boyitadi, shu bilan birga kommunikativ jarayonni soddalashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2002. 65 b.
2. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. -T.: 2000. -174 b.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992. 166 b.

